

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA QUSH OBRAZINING BADIYYATI

Mukumova Sevara,Magistrant, Samarqand davlat universiteti,
Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq ertaklarida qush obrazining badiiy-estetik, mifologik, ramziy va tarbiyaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Xalq ertaklarida qush obrazi oddiy tabiat unsuri sifatida emas, balki ezgulik, ogohlik, xaloskorlik, donolik, sadoqat va ilohiy yordam timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada Semurg', qaldirg'och, qarg'a, kaptar, bulbul, dono qush kabi obrazlarning syujetdagi vazifasi, qahramon xarakterini ochishdagi o'rni va xalq dunyoqarashi bilan bog'liq jihatlari yoritiladi. Qush obrazining ayrim ertaklarda sehrli yordamchi, ayrimlarida xabarchi, ba'zan esa axloqiy saboq beruvchi timsol sifatida talqin qilinishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida qush obrazlari o'zbek xalq ertaklarining poetik tuzilmasida muhim badiiy vosita bo'lib, milliy tafakkur, qadimiy e'tiqod va xalq estetik qarashlarini ifodalashi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: o'zbek xalq ertaklari, qush obrazi, badiiyat, ramz, mifologik tafakkur, Semurg', qaldirg'och, folklor, obraz, poetika.

Аннотация. В данной статье рассматриваются художественно-эстетические, мифологические, символические и воспитательные особенности образа птицы в узбекских народных сказках. В сказочной традиции птица выступает не только как элемент природы, но и как символ добра, мудрости, верности, предупреждения, спасения и чудесной помощи. Особое внимание уделяется таким образам, как Смург, ласточка, ворона, голубь, соловей и мудрая птица. Анализируется их функция в развитии сюжета, раскрытии характера героя и выражении народного мировоззрения. В статье обосновывается, что в одних сказках птица является волшебным помощником, в других — вестником, советчиком или нравственным ориентиром. Сделан вывод о том, что образ птицы занимает важное место в поэтической структуре узбекских народных сказок и отражает древние представления, национальное мышление и эстетические взгляды народа.

Ключевые слова: узбекские народные сказки, образ птицы, художественность, символ, мифологическое мышление, Смург, ласточка, фольклор, образ, поэтика.

Annotation. This article analyzes the artistic, aesthetic, mythological, symbolic and educational features of the bird image in Uzbek folk tales. In the folk-tale tradition, the bird is represented not merely as a natural creature, but as a symbol of goodness, wisdom, loyalty, warning, salvation and miraculous assistance. Special attention is paid to such images as the Simurgh, swallow, crow, dove, nightingale and wise bird. The article examines their role in plot development, character revelation and the expression of folk worldview. It is argued that in some tales the bird appears as a magical helper, while in others it functions as a messenger, adviser or moral guide. The study concludes that the bird image occupies an important place in the poetic structure of Uzbek folk tales and reflects ancient beliefs, national thinking and aesthetic views of the people.

Keywords: Uzbek folk tales, bird image, artistic features, symbol, mythological thinking, Simurgh, swallow, folklore, image, poetics.

Kirish. O'zbek xalq og'zaki ijodi milliy madaniyatning eng qadimiy va boy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Unda xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, estetik didi, ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlari mujassam bo'lgan. Xususan, ertak janri xalq tafakkurining obrazli ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Ertaklarda voqelik bevosita real hayot shaklida emas, balki badiiy to'qima, fantastik tasvir, ramziy obrazlar va sehrli motivlar orqali beriladi. Shu jihatdan ertaklar faqat bolalar uchun

aytiladigan qiziqarli hikoyalar emas, balki xalqning qadimiy estetik tafakkuri, ijtimoiy tajribasi va ma'naviy qadriyatlarini saqlab kelgan muhim adabiy-folkloriy manbadir.

Adabiyotlar tahlili. Folklorshunoslikda ertaklar xalq og'zaki nasrining muhim janri sifatida talqin qilinadi. O. Safarov ta'kidlaganidek, ertaklar xalq og'zaki badiiy ijodiyotining epik turiga mansub bo'lib, ular o'ziga xos g'oyaviy-mavzuviy yo'nalishga, axloqiy-ta'limiy va ijtimoiy-estetik vazifalarga ega [1, B. 203]. Demak, ertaklarda har bir obraz, har bir syujet unsuri va har bir badiiy detal muayyan g'oyaviy-badiiy vazifani bajaradi. Ana shunday obrazlardan biri qush obrazidir.

Qush obrazining badiiyati, avvalo, uning ramziy ma'no qatlamlari bilan belgilanadi. Qush qadimiy tasavvurlarda osmon, yuksaklik, erkinlik, ruh, xabar, baxt, najot va ilohiy qudrat bilan bog'liq holda talqin qilingan. Xalq ertaklarida ham bu qadimiy tasavvurlarning izlari saqlangan. Masalan, qushning uchishi oddiy harakat emas, balki yuksalish, chegaradan o'tish, dunyolar oralig'ida bog'lovchi vazifani bajarish ma'nolarini bildiradi. Qahramon yerda yashaydi, lekin qush unga osmoniy yordam, uzoqdan xabar yoki g'ayritabiyy kuch olib keladi. Bu esa qush obraziga ramziy va poetik kuch beradi.

O'zbek xalq ertaklaridagi qush obrazlarining eng mashhurlaridan biri Semurg' obrazidir. Semurg' ko'pincha sehri-fantastik ertaklarda uchraydi va qahramonga mushkul vaziyatda yordam beruvchi ulug' qush sifatida tasvirlanadi. Semurg' obrazi o'zbek folklorida faqat hayvon yoki qush sifatida emas, balki xaloskorlik, mehr, kuch, sadoqat va ilohiy yordam ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, o'zbek xalq ertaklarida qaldirg'och, laylak, Semurg', musicha, qarg'a, baliqchiqush kabi qushlar bilan bog'liq ko'plab hodisalar mavjud bo'lib, ular sehri va g'aroyib kuchga ega obrazlar sifatida talqin qilinadi [2, B. 8].

Qush obrazining yana bir muhim ko'rinishi qaldirg'och obrazidir. "Qaldirg'och" ertagida qaldirg'och insoniyatni katta xavfdan saqlab qoluvchi najotkor sifatida tasvirlanadi. Ertak mazmuniga ko'ra, ilon odam go'shti eng shirin ekanini aytmoqchi bo'ladi, ammo qaldirg'och uning tilini cho'qib, odamzodni halokatdan qutqaradi [3]. Bu syujetda qaldirg'och kichik va nozik qush bo'lsa-da, u yovuz kuchga qarshi chiqadi. Demak, ertakda jismoniy kuch emas, balki jasorat, hushyorlik va fidoyilik ulug'lanadi.

Qaldirg'och obrazining badiiyati shundaki, u xalqning tabiatga mehr bilan munosabatini ham ifodalaydi. Ertak yakunida qaldirg'ochning yaxshiligi sababli odamlar unga ozor bermasligi, uylarida saqlashi, unga uya yasashi aytiladi. Bu jihat xalqning tabiat bilan bog'liq axloqiy qarashlarini ko'rsatadi. Qaldirg'och nafaqat ertakdagi personaj, balki xalq xotirasida ezgulik qilgan jonzot sifatida muqaddaslashtirilgan obrazdir. Uning kichikligi va zaif ko'rinishi esa badiiy kontrast yaratadi: kichik qush ulkan xavfni bartaraf etadi. Bunday kontrast ertak poetikasida ezgulikning kuchini yanada ta'sirli ko'rsatadi.

"Dono qush" ertagida esa qush obrazi ogohlik va donolik timsoli sifatida talqin qilinadi. Ertakda podshoning juda aqlli qushi bo'ladi. Podsho chanqab, jomga tomayotgan suvni ichmoqchi bo'lganida qush suvni ag'darib yuboradi. Podsho jahli chiqib, qushni

o'ldiradi. Keyin esa bu suv aslida ajdarning og'zidan tomayotgan zahar ekanini bilib, pushaymon qiladi [4]. Bu ertakda qush qahramonni o'limdan saqlamoqchi bo'ladi, lekin inson shoshqaloqlik va g'azab sababli ezgulikni anglamaydi.

Mazkur ertakda qush obrazi orqali bir necha badiiy va axloqiy g'oya ochiladi. Birinchidan, qush donolik ramzi sifatida beriladi. U xavfni oldindan sezadi va insonni asrashga urinadi. Ikkinchidan, qush sadoqat timsolidir, chunki u podshoga zarar yetkazmoqchi emas, aksincha uni himoya qiladi. Uchinchidan, ertak insonning shoshqaloqligi, jaholat va g'azab oqibatini ko'rsatadi. Qushning o'limi fojiali badiiy detal bo'lib, u orqali "har bir harakatning sababini bilmay hukm chiqarish yomon oqibatga olib keladi" degan g'oya ilgari suriladi.

Natijalar. O'zbek xalq ertaklarida qush obrazining yana bir badiiy xususiyati uning xabarchilik vazifasidir. Qush tez uchadi, uzoq masofani bosib o'tadi, yuqoridan ko'radi va turli makonlar o'rtasida aloqa o'rnatadi. Shu sababli ertaklarda qushlar ko'pincha xabar yetkazuvchi, ogohlantiruvchi yoki voqealar rivojini harakatga keltiruvchi personaj sifatida ishtirok etadi. "Ovchi, Ko'kcha va Dono" ertagida kaptarlar, qarg'a, sichqon, toshbaqa va kiyik o'rtasidagi do'stlik tasvirlanadi. Bu ertakda qushlar faqat bezak obraz emas, balki voqeani rivojlantiruvchi faol kuch sifatida qatnashadi [5].

"Ovchi, Ko'kcha va Dono" ertagidagi Ko'kcha obrazi keksalik, tajriba va aql ramzi sifatida ko'rinadi. U kaptarlarni tuzoqdan ogohlantiradi, keyinchalik esa qutulish yo'lini topadi. Qarg'a esa dastlab manfaat izlagan holda ko'rinsa-da, keyinchalik do'stlik tizimiga kiradi va foydali yordamchiga aylanadi. Bu ertakda qushlar orqali jamoaviylik, do'stlik, bir-biriga yordam berish, maslahatga quloq solish kabi qadriyatlar yoritiladi. Qush obrazlari shu tariqa axloqiy-didaktik vazifani bajaradi.

Qush obrazining badiiy talqinida uning ovozi ham alohida ahamiyatga ega. Bulbul obrazida bu jihat ayniqsa kuchli seziladi. Bulbul xalq tasavvurida go'zallik, ishq, bahor, latofat va san'at ramzi sifatida qaraladi. Ertaklarda bulbul ko'pincha chiroyli ovozi, g'aroyib xususiyati yoki sehrliligi bilan ajralib turadi. Bulbul obrazining poetik mohiyati uning tovushi orqali ochiladi. Uning sayrashini inson qalbiga ta'sir qiluvchi estetik kuch sifatida baholanadi. Shu sababli bulbul obrazi ko'pincha go'zallik va ma'naviy zavq bilan bog'lanadi.

Qarg'a obrazi esa o'zbek xalq ertaklarida turlicha talqin qilinadi. Ba'zi ertaklarda u xabarchi, kuzatuvchi va ogohlantiruvchi obraz bo'lsa, ayrim hollarda ayyorlik yoki manfaatparastlik belgilarini ham ifodalaydi. Bunday ikkiyoqlamalik qush obrazlarining xalq ertaklaridagi murakkab semantikasini ko'rsatadi. Ya'ni qush obrazi har doim bir xil ma'noda kelmaydi. U syujet, janr turi va qahramonlar tizimiga qarab turli vazifalarni bajaradi. Bu esa o'zbek ertaklarining obrazlar tizimi boy va ko'p qatlamli ekanidan dalolat beradi.

Qush obrazlari ko'pincha sehrliligi bilan ham bog'lanadi. Masalan, qush pati ko'plab ertaklarda sehrliligi kuchni chaqirish vositasi sifatida ishlatiladi. Qahramon

mushkul ahvolga tushganda patni kuydiradi yoki undan foydalanadi, shunda sehrli qush yordamga keladi. Bu motiv qadimiy mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq. Tadqiqotlarda qush pati, ayniqsa, Semurg‘ pati sehrli chaqiriq vositasi sifatida talqin qilinishi qayd etiladi [2, B. 31]. Demak, ertakda qushning o‘zi bilan birga uning pati ham mustaqil badiiy-belgili vazifani bajaradi.

Muxokama. O‘zbek xalq ertaklarida qush obrazining badiiyati uning qahramon xarakterini ochishdagi o‘rni bilan ham belgilanadi. Qahramon qushga qanday munosabatda bo‘lsa, uning ichki dunyosi ham shunday ochiladi. Agar qahramon qushga yordam bersa, uni asrasa yoki uning maslahatiga quloq solsa, bu uning mehribon, oqil va ezgulikka moyil inson ekanini ko‘rsatadi. Aksincha, qushni mensimaslik, unga zulm qilish yoki uning ogohlantirishini tushunmaslik qahramonning nuqsonlarini ochadi. “Dono qush” ertagida podshoning qushni o‘ldirishi uning shoshqaloqligi va g‘azabga berilishini fosh etadi. Qush obrazining yana bir muhim jihati — uning ertakdagi makon bilan bog‘liqligidir. Qush osmonda uchadi, daraxtda qo‘nadi, uzoq yurtlarga boradi, tog‘ va cho‘llardan oshadi. Bu xususiyatlar uni harakat va makon almashinuvi bilan bog‘laydi. Ertaklarda qahramon ko‘pincha bir makondan ikkinchi makonga o‘tishi kerak bo‘ladi. Qush ana shu o‘tish jarayonida yordam beradi. Shu bois qush obrazi ertak kompozitsiyasida ko‘pincha bog‘lovchi vazifani bajaradi.

Qush obrazlari xalq ertaklarida ezgulik va yovuzlik qarama-qarshiligini kuchaytiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, qaldirg‘och insonni ilondan himoya qiladi. Bu yerda qaldirg‘och ezgulik, ilon esa xavf va yovuzlik timsolidir. “Dono qush” ertagida qush hayotni saqlovchi kuch, ajdar zahari esa halokat belgisi sifatida qarama-qarshi qo‘yiladi. Bunday obrazlar orqali ertakning axloqiy mazmuni oson va ta’sirli anglashiladi.

Qush obrazining badiiyati xalq tafakkuridagi tabiat va inson munosabatini ham ifodalaydi. Ertaklarda qushlar inson bilan gaplashadi, maslahat beradi, yordam qiladi yoki inson taqdiriga ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat antropomorfizm hodisasi bilan bog‘liq. Ya’ni qushlarga insoniy fazilatlar beriladi: ular o‘ylaydi, gapiradi, do‘stlashadi, sadoqat ko‘rsatadi, xafa bo‘ladi yoki yordam beradi. Bunday usul ertakning badiiy ta’sirchanligini oshiradi va bolalar hamda kattalar ongiga axloqiy g‘oyalarni obrazli tarzda yetkazadi.

O‘zbek xalq ertaklaridagi qush obrazlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1-jadval

O‘zbek xalq ertaklarida qush obrazlarining badiiy-funksional xususiyatlari

Qush obrazi	Ertakdagi asosiy vazifasi	Ramziy ma’nosi	Badiiy-estetik ahamiyati
Semurg‘	Sehrli yordamchi, xaloskor	Najot, kuch, ilohiy yordam	Qahramonning ezgulik yo‘lidagi kurashini qo‘llab-quvvatlaydi
Qaldirg‘och	Himoyachi, ogohlantiruvchi	Fidoyilik, mehr, hushyorlik	Kichik obraz orqali katta ezgulik g‘oyasi ochiladi

Dono qush	Ogohlik beruvchi yordamchi	Donolik, sadoqat, sezgirlik	Shoshqaloqlik va jaholat oqibatini ko'rsatadi
Qarg'a	Xabarchi, kuzatuvchi, ba'zan ayyor obraz	Ehtiyotkorlik, tajriba, manfaat	Syujetni harakatga keltiradi va voqealar bog'liqligini ta'minlaydi
Kaptar	Do'stlik va jamoaviylik vakili	Tinchlik, birlik, ishonch	Axloqiy-didaktik g'oyani kuchaytiradi
Bulbul	Go'zallik va ovoz timsoli	Ishq, san'at, bahor, latofat	Ertakning estetik-emotsional ta'sirini oshiradi

Jadvaldan ko'rinadiki, o'zbek xalq ertaklarida qush obrazlari bir xil vazifani bajarmaydi. Ular ayrim hollarda sehrli yordamchi, ayrim hollarda axloqiy saboq beruvchi obraz, boshqa hollarda esa ramziy-estetik detal sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa qush obrazining o'zbek ertak poetikasida keng semantik maydonga ega ekanini ko'rsatadi.

Qush obrazining ertakdagi badiiy vazifalari bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Avvalo, qush obrazi sehrli yordamchi sifatida qahramonni og'ir vaziyatlardan qutqaradi, unga yo'l ko'rsatadi yoki mushkul sinovlarni yengishda ko'maklashadi. Shuningdek, qushlar ertaklarda xabar va ogohlantirish vazifasini ham bajaradi, ya'ni ular voqealar rivojiga turtki beradi, qahramonni xavfdan ogoh etadi yoki muhim ma'lumot yetkazadi. Qush obrazining yana bir muhim jihati uning ramziy ma'no kasb etishidir. U xalq dunyoqarashida erkinlik, ezgulik, donolik, najot va yuksaklik timsoli sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari, qush obrazi orqali ertaklarda axloqiy saboq beriladi, ya'ni insonni yaxshilikka, sadoqatga, mehr-shafqatga va ogohlikka undovchi tarbiyaviy xulosalar ilgari suriladi. Shu bilan birga, qushlarning uchishi, sayrashi, patining sehrli kuchga ega bo'lishi kabi tasvirlar ertakning estetik ta'sirchanligini oshiradi va uning badiiy jozibasini kuchaytiradi. Demak, qush obrazi o'zbek xalq ertaklarida faqat voqea ishtirokchisi emas, balki syujetni rivojlantiruvchi, ramziy ma'no yaratuvchi, tarbiyaviy g'oyani ifodalovchi va ertak poetikasini boyituvchi muhim badiiy vosita hisoblanadi.

Qush obrazining tarbiyaviy ahamiyati ham kuchlidir. Ertaklar orqali xalq bolalarni tabiatga mehrlilik bo'lishga, hayvon va qushlarga ozor bermaslikka, yaxshilikni qadrlashga, maslahatga quloq solishga, shoshqaloqlikdan saqlanishga o'rgatgan. "Qaldirg'och" ertagida qaldirg'ochga ozor bermaslik g'oyasi ilgari suriladi. "Dono qush" ertagida esa o'ylamay qilingan ish pushaymonlikka olib kelishi ko'rsatiladi. "Ovchi, Ko'kcha va Dono" ertagida do'stlik, birdamlik va maslahatning ahamiyati ochiladi. Demak, qush obrazlari orqali xalq axloqiy tajribasini avloddan avlodga yetkazgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklarida qush obrazi muhim badiiy-estetik hodisa hisoblanadi. Bu obraz xalqning qadimiy mifologik qarashlari, tabiatga munosabati, axloqiy qadriyatlari va estetik tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq. Semurg', qaldirg'och, dono qush, qarg'a, kaptar, bulbul kabi obrazlar orqali ertaklarda ezgulik, donolik, sadoqat, ogohlik, do'stlik, xaloskorlik va go'zallik g'oyalari ifodalanadi.

Qush obrazi ertak syujetini rivojlantiradi, qahramon xarakterini ochadi, ramziy ma'no yaratadi va tarbiyaviy xulosa beradi. Shuningdek, qush obrazlari o'zbek xalq ertaklarida oddiy zoologik obraz emas, balki chuqur poetik mazmunga ega badiiy timsol sifatida shakllangan. Ular xalqning "ezgulik yuksaklikka olib chiqadi", "donolik hayotni saqlaydi", "tabiatga mehr insoniylik belgisidir" degan qarashlarini obrazli tarzda ifodalaydi. Shuning uchun o'zbek xalq ertaklarida qush obrazining badiiyatini o'rganish nafaqat folklorshunoslik, balki milliy ma'naviyat, xalq estetik tafakkuri va qadimiy dunyoqarashni anglash uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 368 b.
2. Rasulova Z. O'zbek xalq ertaklarida mifik asosga ega qushlar obrazi. – Toshkent, 2016. – 49 b.
3. Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. – Toshkent: Fan, 1976. – 155 b.
4. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 252 b.
5. Jo'rayev M., Rasulova Z. Mif, marosim va ertak. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. – 308 b.
6. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: O'zR FA nashriyoti, 1964. – 144 b.
7. Sarimsoqov B. O'zbek folklorining janrlar sostavi. – Toshkent: Fan, 1986.
8. O'zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. I jild / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov.
9. Z.Husainova; mas'ul muharrir: M.Mahmudov. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 384 b.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934